

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MADANIY BOYLIKLARNING OLIB CHIQILISHI
VA OLIB KIRILISHI MASALALARINI TARTIBGA SOLISH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston xalqlari madaniy merosining saqlanishini ta‘minlash, madaniy boyliklarning qonunga xilof ravishda olib chiqilishi va olib kirilishidan muhofaza qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, xalqaro madaniy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to‘g‘risidagi **Nizom** 1-ilovaga muvofiq;

Oldingi tahrirga qarang.

(1-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — 2012-y., 44-son, 507-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — 2012-y., 44-son, 507-modda)

3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda muzeylarda va boshqa muassasalarda saqlanayotgan madaniy boyliklarni uch oy muddatda xatlovdan o‘tkazsin va madaniy meros ashyolari hamda obyektlarini davlat muhofaza ro‘yxatlari va reyestrlarini qayta tasdiqlash yuzasidan takliflar kiritсин.

Belgilansinki, davlat muhofaza ro‘yxatlari va reyestrlari aniqlangunga va qayta tasdiqlangunga qadar O‘zbekiston Respublikasi xalqlari madaniy merosining qimmatli obyektlari yoki madaniy boyliklari hisoblangan tarixiy, badiiy, ilmiy yoki boshqa madaniy boyliklar ahamiyatiga molik ko‘char ashyolar yoki O‘zbekiston Respublikasi hududidagi madaniy mulk, shuningdek, ma‘lum darajada madaniy boylik ahamiyatiga molik ashyolar va kolleksiyalar, ular yaratilgan vaqti hamda joyidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emas.

Oldingi tahrirga qarang.

4. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksiyadorlik kompaniyasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining buyurtmanomalariga ko‘ra aeroportlarda, vokzallarda va konteynerlarni jo‘natish joylarida madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tegishli xonalar ajratsinlar.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda amaldagi idoraviy me‘yoriy hujjatlarni bir oy muddatda mazkur qarorga muvofiqlashtirsinlar.

Oldingi tahrirga qarang.

(6-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyundagi 272-sonli qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan — O‘R QHT, 2004-y., 22-23-son, 267-modda)

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari H.S. Karomatov zimmasiga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi I. KARIMOV

Toshkent sh.,
1999-yil 23-mart,
131-son

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risida

NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

Oldingi tahrirga qarang.

1. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi mazkur Nizom (keyingi o'rinlarda "Nizom" deb ataladi) "Madaniy boyliklarning olib kirilishi va olib chiqilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va madaniy boyliklarni badiiy ekspertizadan o'tkazish hamda ularning olib chiqilishi va olib kirilishini nazorat qilishning yagona tartibini, ularni olib chiqish huquqini beruvchi sertifikatlarni berish tartibini, shuningdek, madaniy boyliklar badiiy ekspertizadan o'tkazilganligi va tegishli hujjatlar rasmiylashtirilganligi uchun maxsus yig'im miqdorini va uni to'lash tartibini belgilaydi.

(1-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

2. Madaniy boyliklarga taalluqli ashyolar toifasi quyidagilardan iboratdir:

xalqlar hayotidagi tarixiy voqealar, jamiyat va davlat rivojlanishi, fan va texnika tarixi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, atoqli shaxslar (davlat, siyosiy, jamoat arboblari, mutafakkirlar, fan, adabiyot, san'at arboblari) hayoti va faoliyatiga taalluqli ashyolar;

tarixiy, badiiy, ilmiy va boshqa madaniy qimmatga ega bo'lgan qurollarning har xil turlari; tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan badiiy boyliklar;

arxeologik qazilmalar yoki arxeologik kashfiyotlar va topilmalar natijasida olingan ashyolar va ularning parchalari, tuproq namunalari, arxeologik, geologik va boshqa namunalari;

har qanday asosda va har qanday materiallardan butunlay qo'lda ishlangan rasmlar va suratlar;

har qanday materiallardan ishlangan va haykaltaroshlik asarlari, shu jumladan, bo'rtma rasmlar;

har qanday materiallardan ishlangan asl badiiy kompozitsiyalar va montajlar;

sig'inish maqsadidagi badiiy bezatilgan ashyolar;

etnografik obyektlar;

o'yima naqshlar, estamplar, litografiyalar, ksilografiyalar, grafikaning boshqa turlari va ularning original bosma shakllari;

amaliy-dekorativ san'at asarlari (shisha, loy, yog'och, metall, suyak, mato va boshqa materiallardan ishlangan badiiy buyumlar);

an'anaviy xalq badiiy hunarmandchiligi buyumlari;

arxitektura, tarix, badiiy yodgorliklar va monumental san'at yodgorliklarining tarkibiy qismlari va parchalari;

alohida yoki kolleksiyadagi qadimiy kitoblar, shuningdek, tarixiy, ilmiy-badiiy, adabiy ahamiyatga ega bo'lgan matbaa asarlari;

Oldingi tahrirga qarang.

noyob qo'lyozmalar va hujjatli yodgorliklar, arxiv hujjatlari;

(2-bandning o'n oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 15-son, 168-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

audiovizual asarlar, fonogrammalar va fotomateriallar;

(2-bandning o'n yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 15-martdagi 72-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 12-son, 130-modda)

musiqi asboblari;

filateliya, numizmatika, faleristika, bonistika, sfragistika ashyolari va boshqa kolleksiyalar;

tangalar, ordenlar, medallar, muhrlar, pochta otkritkalari (konvertlar) va kolleksiyalashning boshqa ashyolari;

noyob kolleksiyalar va flora hamda fauna namunalari, ilm-fanning mineralogiya, paleontologiya, anatomiya kabi tarmoqlari uchun ahamiyatli bo'lgan ashyolar;

maishiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan maishiy va ilmiy priborlar, asboblari (coat, barometr, tarozi, durbin, foto-, kinoapparatlari, tikuv mashinalari va shu kabilari);

boshqa ko'char buyumlar, shu jumladan, tarixiy, ilmiy-badiiy yoki boshqa madaniy ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek, davlat tomonidan tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida muhofazaga olingan nusxalar.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishining mazkur Nizomda belgilangan tartibi, mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, arxiv hujjatlaridan tashqari, barcha madaniy boyliklarga nisbatan qo'llaniladi hamda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiydir.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 15-son, 168-modda)

4. Ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklar O'zbekiston Respublikasidan olib chiqib ketilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

5. Ushbu ashyolarning qiymati darajasi ularni badiiy ekspertizadan o'tkazish jarayonida vakolatli san'atshunoslar — ekspertlar yoki O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining shtatdan tashqari ekspertlari tomonidan aniqlanadi.

(5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

6. O'zbekiston xalqining madaniy merosini saqlash ishiga katta hissa qo'shgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar belgilangan tartibda pul mukofotlari yoki boshqa mukofotlar bilan mukofotlanishlari mumkin.

II. MADANIY BOYLIKLARNING OLIB CHIQILISHI VA OLIB KIRILISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA NAZORAT QILISH ORGANLARI

Oldingi tahrirga qarang.

7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiradilar.

(7-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

8. Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha tezkor hal etishni talab etadigan masalalar bojxona organlarining mansabdor shaxslari va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining vakolatli xodimlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Vazirlik xodimiga o'z funksiyalarini bajarish uchun bojxona nazorati zonasiga o'tish huquqini berish bojxona organi rahbari bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

(8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

III. BADIY EKSPERTIZADAN O'TKAZISH VA NAZORATNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Oldingi tahrirga qarang.

9. Madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi sertifikat olish uchun (1 va 1a-illovalar) ularning egasi oldindan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga belgilangan shakldagi yozma ariza (2-ilova), olib

chiqib ketiladigan ashyolarning ro'yxatini, shuningdek, ashyolarning o'zini taqdim etishi shart. Matbaa asarlari olib chiqilishi uchun ro'yxat ikki nusxada taqdim etiladi (3-ilova).

(9-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-dekabrda 1001-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017-y., 10/17/1001/0447-son)

Oldingi tahrirga qarang.

10. Olib chiqiladigan madaniy boyliklar vakolatli san'atshunoslar — ekspertlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda ekspertizaga yuqori malakali mutaxassislardan iborat bo'lgan shtatdan tashqari ekspertlar shartnoma asosida jalb qilinishi mumkin. Alohida hollarda ekspertlar konsiliumi chaqiriladi. Konsiliumning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Ashyolarni ko'rib chiqish va ularni olib chiqilishi imkoniyati to'g'risida ekspert xulosasi tayyorlash ashyoning egasi hozir bo'lmagan holda amalga oshiriladi, biroq u paydo bo'lgan masalalarni aniqlash uchun chaqirilishi mumkin. Ekspertlarning xulosasi (4-ilova) tavsiya tusiga ega bo'ladi va madaniy boyliklarning olib chiqilishi uchun sertifikatlar berish bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilishda hisobga olinadi.

(10-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Zaruriyat bo'lganda ashyolar ekspertizasi ular turgan joyda o'tkazilishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

11. Madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi sertifikat O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining vakolatli xodimi tomonidan imzolanaadi.

(11-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi (jo'natilishi) huquqini beruvchi sertifikat berilgan kundan boshlab uch oy mobaynida haqiqiy hisoblanadi.

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

12. Zarur hollarda mazkur ashyoni oldingi egasidan begonalashtirishning qonun bilan belgilangan shaklini tasdiqlovchi, shuningdek, ularning qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar (cheklar, kvitansiyalar va boshqalar) taqdim etiladi.

13. Badiiy ekspertizadan o'tkazish muddati o'n kundan oshmasligi kerak va u olib chiqiladigan ashyolar soniga, ularning holatiga va ekspertizadan o'tkazish murakkabligi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Oldingi tahrirga qarang.

14. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri va vazirlikning madaniy boyliklarning olib chiqilishiga sertifikatlar berish bo'yicha vakolatli shaxslari mazkur Nizomda belgilangan qoidalarga rioya etilishi uchun shaxsan javob beradilar.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

IV. MADANIY BOYLIKLARING OLIB CHIQLISHI YO'KI VAQTINCHA OLIB CHIQLISHI TARTIBI

Oldingi tahrirga qarang.

15. Olib chiqishni rasmiylashtirishda sertifikat blankida va olib chiqilishiga ruxsat berilgan madaniy boyliklar ro'yxatining har bir varag'ida, ularning fotosuratlarining orqa tomoniga sertifikat tartib raqami, u berilgan sana ko'rsatilgan holda sertifikatni bergan vakolatli shaxsning imzosi qo'yilgan belgilangan namunadagi shtamp bosiladi.

Olib chiqishga ruxsat berilgan tasviriy san'at asarlarining orqa tomoniga shtamp bosiladi, olib chiqishga ruxsat berilgan musiqa asboblari va gilamdo'zlik buyumlari tamg'alanadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Ro'yxatning birinchi turkumi fotosuratlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligida saqlanadi, ikkinchi turkumi sertifikat bilan birgalikda bojxona organlariga taqdim etish uchun egasiga beriladi.

(15-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

16. Doimiy yashash uchun jo'nab ketishda musiqa asboblari pasportlar rasmiylashtirilmaydi. Sertifikat ekspertlar konsiliumi asosida beriladi. MDH mamlakatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy fortepiano asboblari uchun ekspert xulosasi talab qilinmaydi.

(16-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

17. Davlat muzeylari, kutubxonalar, davlatning boshqa saqlash joylari tomonidan madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risidagi sertifikatni olish uchun ariza berilib, unga quyidagilar ilova qilinadi:

(17-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 5-apreldagi 101-son qarori tahririda — O'R QHT, 2012-y., 15-son, 168-modda)

madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishining maqsadlari, muddatlari va shartlari to'g'risida qabul qiluvchi tomon bilan tuzilgan shartnoma;

sug'urta xavflarining barcha hollari ta'minlangan holda vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklar mulkiy sug'urta shartnomasining sug'urta polisi (guvoynoma, sertifikat, kvitansiya);

qabul qiluvchi mamlakat davlat organlarining vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklarning saqlanishi va o'z vaqtida qaytarilishi xususidagi yozma kafolatlari.

Oldingi tahrirga qarang.

18. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risida sertifikat olishda boshqa yuridik shaxslar tomonidan arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

(18-bandning birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishining maqsadlari, muddatlari va shartlari to'g'risida qabul qiluvchi tomon bilan tuzilgan shartnoma;

sug'urta xavflarining barcha hollari ta'minlangan holda vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklar mulkiy sug'urta shartnomasining sug'urta polisi (guvoynoma, sertifikat, kvitansiya).

Oldingi tahrirga qarang.

19. Madaniy boyliklarning vaqtincha olib chiqilishi to'g'risida sertifikat olish uchun jismoniy shaxslar tomonidan arizaga sug'urta xavflarining barcha hollari ta'minlangan holda vaqtincha olib chiqilayotgan madaniy boyliklar mulkiy sug'urta shartnomasining sug'urta polisi (guvoynoma, sertifikat, kvitansiya) ilova qilinadi.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

20. Qaytarilish chog'ida vaqtincha olib chiqilgan madaniy boyliklar o'rami O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasining vakolatli xodimlari va ekspert kengashi a'zolari ishtirokida ochib ko'riladi va ashyolar ularning tarkibi va soni, shuningdek, sifat tavsiflari bir xilligiga muvofiqligini aniqlash maqsadida badiiy ekspertizadan o'tkaziladi.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

21. Vaqtincha olib chiqiladigan musiqa asboblari va kamonlarga sertifikat olish uchun olib chiqilishi va keyinchalik ushbu asbobni olib kirilishi faktini aniqlash uchun zarur bo'lgan asbob va kamonlar to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan pasportlar (5, 5a va 5b-ilovalar) ham taqdim etilishi shart. Asbob har bir olib chiqilishi va olib kirilishida uning egasi ushbu pasportni ro'yxatdan o'tkazish belgilarini qo'yish va boshqa bojxona hujjatlarini to'ldirish uchun bojxona organlariga taqdim etadi.

(21-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

22. Jo'nab ketayotganda fuqarolar tomonidan bojxona organlariga ko'rsatilgan ro'yxatlar, fotosuratlar va sertifikatlar belgilangan tartibda saqlanishi kerak.

(22-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

23. Keyingi 50 yil davomida yaratilgan quyidagi madaniy boyliklarga ular olib chiqilishi huquqini beruvchi sertifikat talab etilmaydi:

(23-bandning birinchi xatboshi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)

gilamlar, gilamdo'zlik buyumlari, kashta, so'zana (barchasi mashinada tikilgan);

elektr musiqa asboblari;

kartinalar, ikonalar reproduksiyalari, san'at bo'yicha albomlar, plastinkalar;

fabrikada ommaviy ishlab chiqarilgan esdalik buyumlar, keramika, chinni, billur, shisha, yog'och, metallardan yasalgan buyumlar (chet elda ishlab chiqarilgan ashyolar bundan mustasno);

1 yoki 2 jilddan iborat bo'lgan badiiy, bolalar, ommabop adabiyot, nota nashrlari;

O'zbekistonda ilmiy-texnik ayirboshlash bo'yicha bo'lgan chet ellik olimlar va mutaxassislar, O'zbekiston Respublikasida o'qiyotgan xorijiy fuqarolar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining chet elga xizmat safariga yuborilayotgan olimlari, mutaxassislari, talabalari, o'quvchilari tomonidan sotib olingan ilmiy, o'quv adabiyoti;

qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan davlat probasiga ega bo'lgan zamonaviy zargarlik buyumlari (olib chiqiladigan zargarlik buyumlari soni bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi);

taqib yurilishi uchun orden daftarchalari yoki mukofotlash guvohnomalari bo'lgan shaxsiy mukofotlar.



LexUZ sharhi

23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 152-sonli qaroriga asosan uninchi xatboshi bilan tuldirilgan. Mazkur xatboshining rus tilidagi matniga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

audiovizual asarlar va fonogrammalar.

(23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 15-martdagi 72-sonli qaroriga asosan o'n birinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — O'R QHT, 2012-y., 12-son, 130-modda)

24. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarning konteynerlar, yuk va pochta jo'natmalarida olib chiqilishi taqiqlanadi. Olib chiqishga ruxsat etilgan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bevosita ularning egalari tomonidan olib chiqiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

25. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zarur hollarda:

(25-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

olib chiqishga taqdim etilgan madaniy boyliklar to'g'risida maxsus xulosa berish haqida so'rov bilan vakolatli davlat, jamoat tashkilotlariga, muassasalarga murojaat qilish huquqiga egadir. Mazkur so'rovlar bir hafta muddatda ko'rib chiqilishi kerak;

madaniy boyliklar O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy sotib olinganligini tasdiqlovchi, shuningdek, ularning qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqlidir.

V. MADANIY BOYLIKLARNING OLIB KIRILISHI TARTIBI

Oldingi tahrirga qarang.

26. Xorijiy fuqarolar (shu jumladan xorijiy diplomatik va konsullik vakolatxonalari boshliqlari) va boshqa shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga vaqtincha olib kiriladigan madaniy boyliklar tegishli bojxona hujjatlarida ko‘rsatilishi kerak.

(26-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda — 2012-y., 44-son, 507-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

(27-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — 2012-y., 44-son, 507-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

28. Musiqa asboblari va kamonlarning bojxona organlari belgisi qo‘yilgan pasportlari ularning O‘zbekiston Respublikasidan to‘siqsiz olib chiqilishi uchun asos hisoblanadi.

(28-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qarori tahririda — 2012-y., 44-son, 507-modda)

VI. BADIY EKSPERTIZADAN O‘TKAZILGANLIGI VA HUJJATLAR RASMIYLASH TIRILGANLIGI UCHUN MAXSUS YIG‘IM

Oldingi tahrirga qarang.

29. Madaniy boyliklar badiiy ekspertizadan o‘tkazilganligi uchun **7-ilovaga** muvofiq maxsus yig‘im undiriladi, ushbu yig‘im O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining ekspertizadan o‘tkazgan tegishli muassasalari hisob-kitob schyotiga tushadi.

(29-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Maxsus yig‘im miqdorini belgilashda tahlilning murakkabligi, ish hajmi, buyumlar soni va madaniy boyliklarning sifat tavsiflari hisobga olinadi.

30. Madaniy boyliklar badiiy ekspertizadan o‘tkazilganda, ular olib chiqilishi imkoniyatidan qat‘i nazar, ariza beruvchidan to‘liq miqdorda maxsus yig‘im undiriladi.

31. Tegishli davlat organlari tomonidan ushlab qolingani yoki musodara qilingan madaniy boyliklarni ekspertizadan o‘tkazish va ularga xulosa yozish (**8-ilova**) to‘lov undirmasdan amalga oshiriladi. Ushlab qolingani va musodara qilingan madaniy boyliklarni ekspertizadan o‘tkazish muddati — 15 kun.

32. Badiiy ekspertizadan o‘tkazilganligi va hujjatlar rasmiylashtirilganligi uchun maxsus yig‘im undirishdan tushgan mablag‘lar moddiy-texnika bazani rivojlantirishda, reklama-noshirlik ishida, shtatdan tashqari ekspertlar va jalb qilinadigan mutaxassislar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha haq to‘lashda, shuningdek, xodimlarning ijtimoiy, iqtisodiy shart-sharoitlarini yaxshilashda foydalaniladi.

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizomga
1-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarning O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi huquqini beruvchi	Madaniy boyliklarning O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi huquqini beruvchi
-son SERTIFIKAT	-son SERTIFIKAT
Ariza beruvchi _____ (F. I. O. yoki tashkilot nomi)	Ariza beruvchi _____ (F. I. O. yoki tashkilot nomi)
Pasport ma’lumotlari yoki rekvizitlari	Pasport ma’lumotlari yoki rekvizitlari
Ashyolar qayerga olib chiqilmoqda _____ (mamlakat)	Ashyolar qayerga olib chiqilmoqda _____ (mamlakat)
Olib chiqilayotgan ashyolarning ro‘yxati “_____” varaqda ilova qilinmoqda.	Olib chiqilayotgan ashyolarning ro‘yxati “_____” varaqda ilova qilinmoqda.
Ashyolarning qiymati _____ (so‘z bilan)	Ashyolarning qiymati _____ (so‘z bilan)
Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kiritilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida olib chiqilishi kerak	Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kiritilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizom asosida olib chiqilishi kerak
1999-yil “_____” _____ shahrida berilgan	1999-yil “_____” _____ shahrida berilgan
1999-yil “_____” _____ gacha haqiqiy	1999-yil “_____” _____ gacha haqiqiy
Madaniyat vazirligi vakolatli shaxsining lavozimi, F. I. O. va imzosi	Madaniyat vazirligi vakolatli shaxsining lavozimi, F. I. O. va imzosi
Oluvchining tilxati	Oluvchining tilxati Bojxona organiga topshirilishi kerak
M. O‘.	M. O‘.

(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

**Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kiritilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizomga
1a-ILOVA**

Oldingi tahrirga qarang.

Madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi	Madaniy boyliklarning O'zbekiston Respublikasidan vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi
-son SERTIFIKAT	-son SERTIFIKAT
Ariza beruvchi _____ (F. I. O. yoki tashkilot nomi)	Ariza beruvchi _____ (F. I. O. yoki tashkilot nomi)
Pasport ma'lumotlari yoki rekvizitlari	Pasport ma'lumotlari yoki rekvizitlari
Ashyolar qayerga va qaysi muddatga olib chiqilmoqda	Ashyolar qayerga va qaysi muddatga olib chiqilmoqda
(mamlakat va qayta olib kiritilishi sanasi)	(mamlakat va qayta olib kiritilishi sanasi)
Vaqtincha olib chiqilayotgan ashyolarning ro'yxati "_____" varaqda ilova qilinmoqda.	Vaqtincha olib chiqilayotgan ashyolarning ro'yxati "_____" varaqda ilova qilinmoqda.
Ashyolarning sug'urta bahosi _____ (so'z bilan)	Ashyolarning sug'urta bahosi _____ (so'z bilan)
Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kiritilishi tartibi to'g'risidagi Nizom asosida vaqtincha olib chiqilishi kerak	Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kiritilishi tartibi to'g'risidagi Nizom asosida vaqtincha olib chiqilishi kerak
1999-yil "_____" _____ shahrida berilgan	1999-yil "_____" _____ shahrida berilgan
1999-yil "_____" _____ gacha haqiqiy	1999-yil "_____" _____ gacha haqiqiy
Madaniyat vazirligi vakolatli shaxsining lavozimi, F. I. O. va imzosi	Madaniyat vazirligi vakolatli shaxsining lavozimi, F. I. O. va imzosi
Oluvchining tilxati	Oluvchining tilxati Bojxona organiga topshirilishi kerak
M. O'.	M. O'.

(1a-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O'R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

**Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kiritilishi tartibi to'g'risidagi Nizomga
2-ILOVA**

Oldingi tahrirga qarang.

	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga

	_____ dan
	Manzili: _____

	Pasport ma'lumotlari yoki rekvizitlari

A R I Z A	
_____mamlakatiga	
_____sonda	
olib chiqishga (vaqtincha olib chiqishga) ruxsat berishingizni so‘rayman.	
Sana 199_____yil “__”	Imzo

(2-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11 maydagi 270-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 19-son, 345-modda)

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizomga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilayotgan yoki vaqtincha olib chiqilayotgan (jo‘natilayotgan) nashrlar			
RO‘YXATI			
F. I. O. Yoki tashkilot nomi _____			
Pasport ma‘lumotlari yoki rekvizitlari _____			
Qayerga olib chiqilmoqda (jo‘natilmoqda) _____			
Muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi	Nashrning nomi	Chiqarilgan yili	Jildlar soni
M. O‘: _____	Ekspertning imzosi _____		
	199_yil “__”		

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizomga
4-ILOVA

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi uchun	
EKSPERT XULOSASI	
Ekspert _____	(F. I. O. va lavozimi)
O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining _____	
1 qismi 238-moddasi bilan tanishib chiqdim	Imzo
Quyidagi ashyolar bilan tanishib chiqdim:	

soni)			
saqlangan holati (yoriq joylari, yamalgan joylari, yog'ochdagi ko'z izlari va boshqalar)			
Gardishining tavsifi			
Bo'g'izi, o'mrovi, qalpog'i			
Alohida belgilari (harflar, raqamlar, nomlari va b.)			
Egasining imzosi _____ 199_ yil _____			
Ekspertning F. I. O. _____			
Pasport bergan muassasaning muhri			

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi Nizomga
5a-ILOVA

<p>Kamon uchun -son P A S P O R T</p>

Egasi (F.I.O.) _____			
Kamon tavsifi: tayoqchasi, uchi, vintli kalodkasi (materiali, texnikasi, qimmat baho metallari va toshlari bo'lganda ularning probasi ko'rsatilishi kerak, og'irligi va soni) _____			

Markalash (tamg'asi, ustaning belgisi, harflari, raqamlari, bezak shaklidagi shartli belgilari)			

Hajmlari (mm da): kamonning uzunligi			

Egasining imzosi _____ 199 " _____ " yil _____			
Ekspert qiluvchining F. I. O. _____			
Pasport bergan muassasaning muhri			

	Uchi bilan tayoqcha qismining foto surati (18x8 sm)	Kalotka va vint bilan uchi yon qismining foto surati (18x8 sm)	Kalodka va vint bilan uchi pastki qismining foto surati (18x8 sm)

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi Nizomga
5b-ILOVA

Xalq musiqa asboblari uchun _____ -son P A S P O R T

Egasi (F.I.O.) _____		
Asbobning nomi _____		
Yorlig'i (asl transkripsiyasida, saqlanishi) _____		

Hajmi (sm da) asbobning umumiy uzunligi _____		
qutisining eng katta eni _____		
eng katta chuqur joyi _____ qutusidan uzunligi _____		
yuqori boshigacha _____ bo'g'izining uzunligi _____		
buragich boshchasi bilan _____		
Tavsifi:	ustki qopqog'i _____	
	pastki qopqog'i _____	
materiali	_____	
rangi	_____	
(asbob bo'laklarning soni) _____		
saqlangan holati (yoriq joylari, yamalgan joylari, yog'ochdagi ko'z izlari va boshqalar) _____		

Bo'g'izi, qalpog'i (burgach solinadigan quti) _____		
Alohida belgilari (harflar, raqamlar, nomlari va boshqalar) _____		
Egasining imzosi _____ 199_ yil _____		
Ekspertning F. I. O. _____		
Pasport bergan muassasaning muhri _____		
		Umumiy ko'rinishdagi foto surati (12x18)



LexUZ sharhi

Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 152-sonli qaroriga 5v-ilova bilan to'ldirilgan. Mazkur ilovaning rus tilidagi matniga qarang.

Oldingi tahrirga qarang.

(6-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 1-noyabrdagi 313-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — 2012-y., 44-son, 507-modda)

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi Nizomga
7-ILOVA

Badiiy ekspertizani o'tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun

MAXSUS YIG'IM

		Eng kam oylik ish haqiga nisbatan foizlarda (dan -gacha)
1.	Kitoblar (bitta nomdagi)	5-15
2.	Ko'p jildli ensiklopediya (bitta nomdagi)	200
3.	1 nomdagi rasmlar, haykaltaroshlik (shu jumladan, bir mavzu, voqelik bilan birlashgan diptixlar, triptixlar, seriyalar)	

	— professional bo‘lganlari	100-200
	— professional bo‘lmaganlari	50-75
4.	10 varaqqacha bo‘lgan grafika (1 nomda)	
	— professional bo‘lganlari	
	— professional bo‘lmaganlari	
5.	Gilamlar, devorga osib qo‘yiladigan suratli gilamlar	200-400
6.	Poloslar	100-200
7.	So‘zanalar	100-200
8.	Amaliy-dekorativ san’at ashyolari	25-150
9.	Kumushdan yasalgan badiiy buyumlar (oshxona priborlaridan tashqari)	100-200
10.	Keng ko‘lamda ishlab chiqariladigan ashyolar	10-20
11.	Musiqa asboblari	50-100
12.	Fortepiano	100-200
13.	Badiiy mebel, maishiy priborlar	150-250
14.	Videokassetalar	20
15.	Audiokassetalar	5
16.	Tuproq namunalari, arxeologik, geologik va boshqa namunalalar	100-200
17.	Qaytarib olib kirish sharti bilan olib chiqiladigan yoki qaytarib olib chiqib ketish sharti bilan olib kiritiladigan ashyolar	30
18.	Markalar, nishonlar, belgilar, kolleksiyalash-ning boshqa ashyolari	50-200
19.	Setifikat	15
20.	Blanklar	4
21.	Maslahatlar	10-30

(7-ilova 19-bandi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 6-iyuldagi 156-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2005-y., 27-son, 191-modda)



LexUZ sharhi

7-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-maydagi 152-sonli qaroriga asosan o‘zgartirish kiritilgan. Mazkur ilovaning rus tilidagi matniga qarang.



LexUZ sharhi

7-ilovaga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 26-apreldagi 245-sonli qaroriga asosan o‘zgartirish kiritilgan. Mazkur ilovaning rus tilidagi matniga qarang.

Madaniy boyliklarning olib chiqilishi
va olib kiritilishi tartibi to‘g‘risidagi Nizomga
8-ILOVA

Chiqish raqami _____	
199_ yil “_” _____	_____ sh.
San’atshunoslik eksperti	
XULOSASI	

Men (biz) _____
(F.I.O., lavozimi)
_____ tomonidan
(badiiy ekspertizadan o'tkazuvchi muassasaning nomi)
Bojxona organlari _____ -son posti tomonidan _____
_____ da yashovchi _____ ga
boruvchi _____
(sana, reys raqami, davlat)
fuqaro _____ dan (Pasport raqami _____ seriyasi _____
_____ berilgan) ushlab qolingan:
(kim tomonidan, qachon)
(nomi, soni)
_____ ekspertizasidan o'tkazildi.
Ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:
199__ yil “__” _____ Imzo _____

*Olding
i tahrirga qaran
g.*

*(2-
ilova
O'zbekiston
Respublikasi
Vazirlar
Mahkamasining
2012-yil 1-
noyabrdagi 313-
sonli qaroriga
asosan o'z
kuchini
yo'qotgan —
2012-y., 44-son,
507-modda)*

*Olding
i tahrirga qaran
g.*

*(3-
ilova
O'zbekiston*

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyundagi 272-sonli qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan— O'R QHT, 2004-y., 22-23-son, 267-modda)

(O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami, 1999-y., 3-son, 15-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 22-23-son, 267-modda; 2011-y., 20-21-son, 210-modda; 2012-y., 12-son, 130-modda; 15-son, 168-modda, 44-son, 507-modda; 2017-y., 17-son, 304-modda, 19-son, 345-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2017-y., 10/17/1001/0447-son)